



CHANGES IN THE IRRIGATION SYSTEM IN THE SAMARKAND REGION DURING THE 1930S–1940S (ON THE EXAMPLE OF THE UPPER ZARAFSHAN)

Nodir Akhtamovich Melikov

Researcher at Samarkand State University

E-mail: tayloq08@umail.uz

Samarkand, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Zarafshan, Samarkand, water, Yangi-Darg‘om, hydraulic engineering, bridge, junction.

Received: 17.04.26

Accepted: 18.04.26

Published: 19.04.26

Abstract: This article examines the Upper Zarafshan water system, which is one of the main irrigation networks of Samarkand and is located in the Rovotkhoja area (30 km downstream from the city of Panjikent). The significance of the Zarafshan River for the Samarkand region is highlighted. In the 20th century, major efforts were undertaken to ensure the rational use of the Zarafshan River’s water. It is precisely from this location that the largest irrigation systems originate: on the left bank — Yangi, Qozon, and Darg‘om; on the right bank — Tuyatortar, Katta Tayloq, and Kichik Tayloq.

XX ASRNING 30-40 YILLARIDA SAMARQAND VILOYATIDA IRRIGATSIYA TIZIMIDAGI O‘ZGARISHLAR (YUQORI ZARAFSHON MISOLIDA)

Nodir Axtamovich Melikov

SamDU tadqiqotchisi

E-mail: tayloq08@umail.uz

Samarqand, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Zarafshon, Samarqand, suv, Yangi-Darg‘om, Gidrotexnika, ko‘prik, uzeli.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yuqori Zarafshon suv Samarqandning asosiy sug‘orish tarmoqlaridan biri bo‘lib, Rovotxo‘ja hududida (Panjikent shahridan 30 km quyida) joylashgan. Zarafshon daryosining Samarqand viloyati uchun ahamiyatli jihatlari yoritib berilgan. XX asrda Zarafshon daryosidan oqilona foydalanish maqsadida kata ishlar amalga oshirildi. Aynan shu joydan eng yirik

sugʻorish tizimlari chap tomondan Yangi, Qozon, Dargʻom, oʻng tomondan Tuyatortar, Katta va Kichik Tayloq boshlangan.

ИЗМЕНЕНИЯ В СИСТЕМЕ ОРОШЕНИЯ САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ В 1930–1940-Е ГОДЫ (НА ПРИМЕРЕ ВЕРХНЕГО ЗАРАФШАНА)

Нодир Ахтамович Меликов

Исследователь

Самаркандского государственного университета

E-mail: tayloq08@umail.uz

Самарканд, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:	Зарафшан, Самарканд, вода, гидротехника, мост, узел.	Аннотация:	В данной статье рассматривается водная система Верхнего Зарафшана, являющаяся одной из основных оросительных сетей Самарканда и расположенная в районе Роватходжа (в 30 км ниже города Пенджикента). Освещается значение реки Зарафшан для Самаркандской области. В XX веке были проведены крупные работы по рациональному использованию вод реки Зарафшан. Именно отсюда берут начало крупнейшие оросительные системы: с левого берега — Янги, Казон и Даргом; с правого берега — Туятортар, Большой Тайлак и Малый Тайлак.
------------------------	--	-------------------	--

Kirish. Yuqori Zarafshon suv uzeline barpo etish masalasi XX asr boshlarida Turkiston oʻlkasida suv resurslaridan oqilona foydalanish va sugʻorish tizimlarini qayta tashkil etish asnosida boshlangan edi. Shu maqsadda loyiha-qidiruv ekspeditsiyalari uyushtirilgan. Ekspeditsiyada taniqli injener-irrigatorlar M.Virskiy, K.S.Savitskiy, N.P.Petrovskiy, M.Tumanov, Z.E.Jijemskiy, A.V.Chepligin va boshqalar ishtirok etgan. Ular Samarqand hududi yerlarini sugʻorish uchun yangi irrigatsiya tizimlarini qurish boʻyicha bir nechta loyihalar ishlab chiqib, Turkiston general-gubernatorligiga taqdim etgan. Ushbu loyihalardagi asosiy masalalardan biri oʻng va chap sohildagi magistral kanallarning bosh qismlarini birlashtirishi kerak boʻlgan Yuqori Zarafshon suv uzeline bunyod qilish boʻlgan[1].

Keyingi yillarda ham Yuqori Zarafshon suv uzelida qator gidrotexnik qurilish ishlari olib borildi. Xususan, 1926 yil noyabr oyida boshlangan Rovotxoʻja toʻgʻoni qurilishi 1930 yildan tugallandi[2]. Shu yilda chap sohildagi Yangi-Dargʻom kanali ham qurib bitkazilib, gidrouzel davlatga jami 13 million rublga tushdi, shundan 5 million 127 ming rubli bevosita toʻgʻon qurilishiga sarflangan[3].

Zarafshon suvi Yangi-Darg'om kanaliga uzunligi 511 metr bo'lgan maxsus qazib chiqilgan tunel orqali kirib borgan. Qattiq tog' jinlarida qazib ochilgan ushbu tunelning o'zi irrigatsiya amaliyotida o'z davrida juda kam uchraydigan noyob inshoot hisoblangan. Sovet hokimiyati davrida barpo etilgan "1-May" to'g'oni ikki tomonlama suv oluvchi inshoot va hindcha turdagi chuqur suv tashlovchi qurilmasi bilan O'zbekistondagi birinchi yirik gidrotexnika uzeli hisoblanadi[4].

Ma'lumotlarga ko'ra, Rovatxo'ja to'g'onini chap sohil kanali bilan qurilishi 25 ming gektar yangi yerlarni sug'orish imkonini berdi va bu yerlarning barchasi paxta dalalariga aylantirildi. Eng asosiysi, ushbu gidrouzel minglab suv foydalanuvchilar o'rtasida suv taqsimotini to'liq tartibga soldi. Bu Rovatxo'ja gidrouzeli qurilishining birinchi bosqichi edi. 1934 yildan e'tiboran gidrouzel qurilishining ikkinchi bosqichi boshlandi. Shu vaqtgacha qurilgan to'g'on suvni faqat chap sohil kanaliga uzatib, o'ng sohildagi Tuyatortar, Katta va kichik Tayloq kanallari esa "1-May" to'g'onidan yuqori va past joylarda bo'lib, suvni hali ham mahalliy turdagi suv inshootlari orqali olar edi. Bu kanallar va inshootlar to'g'onning normal faoliyatiga zarar yetkazib, uni suvsiz qoldirish xavfini tug'dirgan. Shu sababdan 1934 yil bahorida "O'zvodstroy" boshchiligida Bulung'ur, Jizzax va G'allaorol rayonlari kolxozchilari tashabbusi bilan muhandislik asosida Yangi-Mirza o'ng qirg'oq kanali qurildi. Qurilish jarayonida 510 ming kub metr tuproq, 125 kub metr yog'och, 8 ming kub metr beton va 500 kub metr temir-beton ishlari bajarilib, umumiy hisobda qurilishga 90 ming rubl mablag' sarf qilindi. Mazkur kanal qurilishi natijasida 43 ming gektar maydonni sug'orib turgan yetti kanalning bosh qismi birlashtirildi.

Aytish joiz, bu davrda viloyatda irrigatsiya sohasida erishilgan yutuqlar bilan bir qatorda ayrim kamchilik va muammolar ham mavjud bo'lgan. Gidrotexnika inshootlari ko'plab kamchiliklar bilan foydalanishga topshirilgan, ularning me'yoriy ishlashi o'z vaqtida ta'minlanmagan. Xususan, 1936 yil iyun oyida o'tkazilgan tekshiruv dalolatnomasidagi ma'lumotlarga ko'ra Rovatxo'ja to'g'oni tegishli yo'riqnomalarsiz ekspluatatsiya qilingan.

Viloyat irrigatsiya tizimidagi kamchiliklar rejalashtirish jarayonlarida ham ko'zga tashlanib, gidrotexnika inshootlarini ta'mirlash ishlariga arzimas darajadagi mablag'lar ajratilgan. Jumladan, 1935 yilda Rovatxo'ja to'g'oni ta'miri uchun sarflangan mablag' inshoot umumiy qiymatining atigi 0,6 foizini, 1936 yilda esa 0,9 foizini tashkil etgan. Holbuki, zarur ta'mirlash ishlari inshoot qiymatining kamida 2,5-3 foiz miqdorida bo'lishini talab etgan. Oqibatda 1937 yilgi rejaga muvofiq, 1 million 471 ming so'mlik tiklash ishlari amalga oshirilishi va ming tonnadan ziyod sement talab etilishi zarur bo'lib qoldi. Ikkinchi besh yillik davrida irrigatsiya qurilishining asosiy yo'nalishi, avvalo, paxta hosildorligini oshirishga qaratildi. Bu

masalaga VKP(b)ning XVIII s'ezdi qarorlarida ham alohida to'xtalib o'tilgan. Natijada birgina 1939 yil bahorida O'zbekistonda 46 ta irrigatsiya kanallari qurilib, umumiy 2,5 million kub metr tuproq ishlari bajarildi[5].

Viloyatda ushbu davrdagi yana bir yirik irrigatsiya qurilishlaridan biri Katta Zarafshon kanali bo'lib, u Yangi-Mirza kanali barpo etilganidan keyin ham Rovotxo'ja suv uzelinig ish sharoitlari sezilarli darajada o'zgarmaganligi natijasida amalga oshirildi. Chunki o'ng tarmoq regulyatoriga suvni Zarafshon daryosining o'ng sohilidagi yerlarning suv bilan ta'minlanishini me'yoriy holatga keltirish va yanada yaxshilash maqsadida direktiv organlar ko'rsatmasiga binoan muhandis Ye.Ozerskiy tomonidan O'ng sohil kanali loyihasi ishlab chiqildi. Uning qurilishini 1939 yil 20 avgustdan 5 sentyabrgacha bo'lgan muddatda yakunlash rejalashtirildi.

1939 yil iyul oyida O'zbekiston SSR Kommunistik Partiyasi Markaziy Qo'mitasi Samarqand viloyati partiya tashkilotining Yuqori Zarafshon gidrouzelini yakuniy barpo etish to'g'risidagi taklifini qabul qildi. Samarqand viloyat partiya qo'mitasining navbatdagi plenumi "O'ng sohil kanali qurilishi haqida"gi masalani muhokama qilib, ushbu yirik irrigatsiya inshootini amalga oshirish bo'yicha batafsil tadbirlarni ma'qulladi. O'zbekiston SSR hukumati ushbu qurilishga 790 ming rubl mablag' ajratdi[6].

O'ng sohil kanalining bosh qismi birinchi qurilish uchastkasini tashkil qilib, 1 avgustdan uchastkada tayyorlov ishlari boshlandi. Bu yerdagi tayyorlov ishlari Bulung'ur rayoni kolxozchilari tomonidan bajarildi. Ta'kidlash kerak, ushbu irrigatsiya qurilish ishlari qator sovet davriy matuboti sahifalarida muttassil yoritib borildi. Ularda keltirilgan ma'lumotlarda sovet davlatining targ'ibot-tashviqot siyosati yaqqol ufurib turadi. Xususan, "Leninskiy put" gazetasida keltirilishicha, "Bulung'ur rayon partiya qo'mitasiga har kuni kanalga ishlashga borishni istaganlardan arizalar kelib tushgan. Tayyorlov ishlari rejasiga ko'ra, birinchi uchastkada 285 nafar kishi ish bilan band bo'lishi lozim bo'lsa, biroq, faqatgina Bulung'ur rayoni kolxozlarining o'zidan uchastkaga 700 nafar ko'ngilli keldi. Uchastkaga avtomashinalarda, aravada, otda har kuni 150-200 nafar kolxozchi kelib turgan"[7]. Bu qurilishga boshliq etib, Strusevich tayinlangan bo'lsa, ish boshqaruvchi (prorab) vazifasini Perepelitsin bajargan.

Birinchi bosh uchastkadagi barcha tayyorlov ishlari 20 avgustga qadar to'liq yakunlandi. Uchastka hududi bo'ylab 20 km tuproq yo'llar, 4 ta ko'prik barpo etildi. Asosiy kanal yopilgandan so'ng Bulung'ur rayoni kolxozlarini suv bilan ta'minlash uchun yordamchi irrigatsiya tarmog'i tayyorlandi va u hududni yetarli miqdordagi suv bilan ta'minlab turdi.

Katta Zarafshon kanali qurilishi 1939 yilning 20 avgustidan boshlandi. Ma'lumotlarga ko'ra, unda taxminan 40 ming kolxozchi, ishchi va muhandis-texnik xodimlar qatnashgan.

Qurilish davomida sovet agitatorlari va kommunistlar keng miqyosdagi targ'ibot-tashviqot ishlarini olib bordi. Kechqurun ma'ruzalar, suhbatlar o'tkazildi, konsertlar tashkil etildi. Yoppasiga ifodalangan qizil matolarda esa "Katta Zarafshon kanali qurilishini muddatidan oldin tugatamiz!" - degan shiorlar yozilgan edi[9].

Yuqorida ta'kidlanganidek, vaqtli matbuot sovet mafkurasining faol targ'ibotchisi sifatida ish ko'rdi. Ularning sahifalarida qurilishda mehnat qilgan ishchilarning "fidoyiligiga" alohida urg'u qaratildi.

Matbuot sahifalarida belgilangan kunlik rejani ortig'i bilan bajargan ishchilar faoliyati yoritib borildi. 50 yoshli Jabbor bobo kunlik 1,75 kub metr o'rniga 2,5 kub metr ishni, M.Karimov esa har kuni me'yorni 180-190 foizga bajarganligi keltiriladi. Shuningdek, Samarqand rayoni 4-uchastkasining 28 kishidan iborat komsomol brigadasi, Qahhorov Ali boshchiligida 15 soat ichida barcha yer ishlarini yakunlab, 385 kub metr tuproq olib tashladi va ishni 6,5 kunga qisqartirdi. Shu brigada a'zolaridan Kurbonov Hasan, Sharipov Tog'a, Qosimov Raxmon va boshqalar ishlab chiqarish rejalarini 400-450 foizga, Komsomol rayonidan Abdullayev Ikrom, Boymatov Jabbor, Is'hoqov Olimlar 1200 foizga bajarganligi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Shunday qilib, o'zbek xalqining fidokorona mehnati tufayli viloyatdagi yana bir muhim irrigatsiya inshooti bo'lmish 48 kilometr uzunlikdagi Katta Zarafshon kanali 11 kun ichida barpo etildi. Kanal qurilishida 36 280 nafar kolxozchi-qurilishchi ishtirok etdi va taxminan bir million kub metr tuproq olib tashlandi[10].

Ushbu kanalning qurilishi bilan Yuqori Zarafshon gidrouzeli barpo etilishi yakunlandi. Bu viloyat yerlarini sug'orish bo'yicha sovet davrida amalga oshirilgan ilk yirik va ommaviy qurilish bo'ldi. Shu tariqa, 1939 yilda ommaviy xalq hashari bilan tezkor sur'atlarda qurilgan o'ng sohildagi Katta Zarafshon kanali sekundiga 110 kub metrgacha suv o'tkazish quvvatiga ega bo'lib, 13 ming gektar yangi yerlarni sug'orish imkoniyatini yaratdi hamda viloyatning shimoliy tumanlarida oldindan sug'orib kelinayotgan maydonlarda suvdan foydalanish tizimini sezilarli darajada yaxshilash imkonini berdi. Kezi kelganda aytish kerak, bu o'zgarishlar tag zamirida mahalliy aholining ulkan zahmatli mehnati va fidokorligi yotsa-da, biroq uning mevasidan ko'proq Markaz bahramand bo'ldi.

Xulosa. Katta Zarafshon kanali qurilishi bilan Tuyatortar, Katta va kichik Tayloq, Bulung'ur va boshqa kanallarining suv ta'minoti 1 May to'g'oniga o'tkazildi. To'g'on "o'ng qo'l"ga ega bo'ldi, natijada Bulung'ur, Jizzax va G'allaorol rayonlaridagi 87 ming gektar yerlar Zarafshon daryosining bevaqt talofatlaridan qutildi. Yuqori Zarafshon gidrouzelining qurilishi 200 ming gektarga yaqin sug'oriladigan yerlarda suvdan foydalanishni yengillashtirdi. Bundan tashqari, daryo suvini viloyatning boshqa rayonlariga tizimli ravishda uzatish imkoni yaratildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Вестник ирригации. – № 6. – 1923. – С. 34.
2. ЎзМА, Р-218-фонд, 2-рўйхат, 219-иш, 25-варак.
3. Жимский А. Водозаборные плотины на реках Средней Азии. – Ташкент: Наука, 1965. – С. 19.
4. Правда Востока. 5 мая 1929 г.
5. Шамсутдинов Ф. Ирригация Узбекистана за 25 лет. – Ташкент, Госиздат УзССР, 1949. – С. 64.
6. Абдунабиев А. По декрету вождя. – Ташкент: Узбекистан, 1970. – С. 43.
7. Ленинский путь. 20 августа 1939 г.
8. Ленинский путь. 24 августа 1939 г.
9. Ленинский путь. 4 сентября 1939 г.
10. Абдунабиев А. По декрету вождя. – Ташкент: Узбекистан, 1970. – С. 44